

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: <b>SANOAT TOKSIKOLOGIYASI</b>		
Fan kodi: SS3606	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 6	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sanoat ekologiyasi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Shomurotova Shohida Mirsagatovna		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 180	Email: shamuratova.shm@gmail.com	
Fan amaliy mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari)		
Prerekvizitlar: Kimyo, fizika fanlari		
Tanlov turi: majburiy fan		
<p><b><i>Fanning qisqacha bayoni:</i></b> bo'lajak mutaxassislarda sanoat toksikologiyasi fanidan olgan bilimlarini kelgusida hozirgi zamon taraqqiyoti bosqichida sanoat korxonalarini ishlab chitsarish jarayonida amaliyotda unumli qo'llay olishlarini ta'minlash kerak. Toksikantlarning biologik ob'ektlarga ta'sir turlari, kimyoviy moddalarning ahamiyati, zaharli moddalar ta'siri xamda zaharli moddalar ta'siriga, sezgirligiga ta'sir etuvchi omillarni bilishlari kerak.</p>		

**Fanning maqsadi:** bo'lajak mutaxassislarda toksikologiya sohasidagi bilim saviyalarini oshirishga mo'ljallangan bo'lib, hozirgi zamon taraqqiyoti bosqichida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida atrof muxitga chiqarilayotgan zaharli, konserogen moddalarning kishilar va tirik organizmlarga ta'sirini o'rgatishdan xamda chiqayotgan zaharli moddalarni ushlab qolish, tozalash, zararsizlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni hamda fanining asosiy maqsadi talabalarga o'tkir va surunkali zaharlanishni va uning oqibatlarini o'rgatishdan iborat.

**Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:**

- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning ahamiyati bilan fanni o'rganish usullari, sanoat toksikologiyasi fanining rivojlanishiga oid ma'lumotlar, toksik moddalarning xususiyatlari, zaharli moddalarning orgnanizmni zaharlashi, ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan atmosfera havosi, suv xavzalari va tuproqqa tashlanayotgan zaharli moddalarning zaharlilik darajasi, zaharli moddalarning chegaraviy mumkin bo'lgan miqdorlari va ularni aniqlash usullari; - zaharli moddalarni tirik organizmlarga ta'siri **haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**

- Zaharli moddalarning sinflanishi, toksik moddalarning organizmga tushish yo'llari, zaharli moddalarning orgnanizmni zaharlashi, zaharlanishning rivojlanishini aniqlovchi omillar xaqida, o'tkir va surunkali zaharlanishni baholay bilishi, Sanoat toksikologiyasi tashkiliy masalalarini va bulardan kelib chiqayotgan muammolarni echish, shaxsiy va guruhiy himoya vositalaridan foydalanish, zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsata bilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

- ishlab chikarish korxonalarida ishlatiladigan zaharli moddalarning turlari, zaharli moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, zaharli moddalarni inson organizmiga ta'siri **to'g'risida aniq malakalarga ega bo'lishi kerak;**

#### **Ma'ruza mashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

#### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir

akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi, mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

<b>№</b>	<b>Fan mavzulari</b>	<b>Ma'ruza soatlar hajmi</b>	<b>Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi</b>	<b>Mustaqil ta'lim soatlari</b>
1	Sanoat toksikologiyasi fanining maqsad va vazifalari.	2	4	9
2	Zaharli moddalarni klassifikatsiyasi	2	4	9
3	Ta'sir, effekt dozasi, effekt turlari.		4	9
4	Zaharli moddalarning organizmda zararsizlanishi.	2	4	9
5	Toksikometriya parametrlari.	2	4	9
6	Zararli moddalarning qayta ta'siri. Zararli moddalar kumulyatsiyasi.	2	4	9
7	Toksikokinetika	2	4	9
8	Xavfli modda va preparatlarning sinflanishi, pasporti va markirovkasi	2	4	9
9	Zaharlarning turli a'zolar tizimlariga ta'siri.	2	4	9
10	Ihlab chiqarishdagi asosiy zaharli moddalarning toksikologiyasi.	2		9
11	Metallarning toksikologiyasi va kasbiy kasalliklarni oldini olish.	2	4	9
12	Erituvchilarning toksikologiyasi.	2	4	9
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>48</b>	<b>108</b>

### Adabiyotlar

1. 1A. Mark , P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2014.
2. Нестерова Е.Н. Основы токсикологии. Учебное пособие. Брянск 2006.
3. Тарасов А.В. Основы токсикологии. М.2006
4. О'Р Yo'ldoshev va b. Mehnatni muhofaza qilish.O'quv qo'llanma -T.: Mehnat, 2005.

5. Karabaeva Z.T. Toksikologiya. Darslik. «Nurafshon biznes» nashriyoti. TKTI. 2019, 277 b.
6. Ye.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O‘.R. Yuldashev Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik –T.: TKTI nashriyoti, 2014.
6. A.A‘zamov , T.Tursunov va b. Mehnatni muhofaza qilis‘h. O‘quv qo‘llanma -T.: Sano-standart, 2013.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardati “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi taxriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
3. Макаров Г.В. и др. Охрана труда в химической промышленности. М., Химия, 1989.

### Internet saytlari

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz)
4. [www.akbt.uz](http://www.akbt.uz)

**Kontakt soatlari\*:** mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma‘lumotlar va turli materiallar bo‘yicha savollarga quyidagi grafik asosida o‘qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	chorshanba	10.00 – 12.00	2/204
2.	juma	10.00 – 12.00	2/204